

## ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**Ahmadjonova Ma'muraxon Ne'matovna**

*Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi  
biologiya fani o'qituvchisi,*

**Rahmonova Ziyodaxon Shakirovna**

*Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi  
rus tili fani o'qituvchisi,*

**Yunusova Maloxatxon Ergashevna**

*Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi  
rus tili fani o'qituvchisi,*

**Eraliyeva Shirmonoy Nuraliyevna**

*Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi  
tarbiya fani o'qituvchisi,*

**Niyozmetova Dilnoza Rustamovna**

*Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi  
kimyo fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya.** Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, ta'lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita pedagog-tarbiyachi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi bugungi kun talabining dolzarb masalasidir. Ta'limning kafolatlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko'rinadiki natija maqsadga qancha yaqin bo'lsa, o'quv-tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** pedagog, boshlang'ich ta'lim, ta'lim-tarbiya, pedagogik texnologiya, innovatsiya, ta'lim samaradorligi, madaniyat, ma'rifat.

### KIRISH

Bugungi jadal rivojlanuvchi davr talablariga muvofiq, o'zgaruvchan zamonaviy maktab ta'limi oldida ta'lim mazmuni va tuzilmasiga yangicha yondashuv zarurati mavjudligi sababli ko'plab dolzarb vazifalar yuzaga keldi. Endilikda zamonaviy o'quvchi – o'qitishda an'anaviy ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanib emas, balki ularga mustaqil bilim olish hamda egallagan bilimlarini takomillashtirishga intilish malakalarini shakllantirishi hamda o'rgatishi zarur.

Shuning uchun ham o'qituvchining o'zi kasbiy-mutaxassislik mahoratiga ega bo'lishi, hozirgi davr talablariga javob beruvchi yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni bilishi shart. Har qanday fan o'qituvchisi, xususan, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ham pedagogik faoliyatidan maqsad – o'quvchilarga kelajakda zamonaviy jamiyatda talab etiladigan yetuk barkamol shaxs

bo'lish, ijodiy tafakkurga ega, intiluvchan inson bo'lib yetishlariga tayyorlash hamda zamonaviy bilim berishga erishishdan iborat.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Maktablarda boshlang'ich ta'lim pedagog-o'qituvchilaridan pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi masalasi dolzarb ahamiyatga ega, chunki ta'lim muassasasining ishiga pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi – maktab ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va isloh etishning eng muhim shartidir.

Ma'lumki, shaxs kamoloti, savodxonligining boshlang'ich poydevori boshlang'ich sinflarda qo'yiladi. Boshlang'ich sinflarda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qish ko'nikma va malakalari shakllanadi, shu sababli ham bu davr inson hayotida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy ta'lim metodologik asosini quyidagi [2]:

- tizimli-faoliyatli;
- ta'limda loyihali-tadqiqot faoliyati;
- kompetentli va aksiologik yondashuv standartlari tashkil etadi.

Tizimli-faoliyatli yondashuv ta'lim natijalariga ta'sir ko'rsatadi, bunda o'quvchi shaxsi rivojlanishi universal o'quv harakatlari, olamni anglash va o'zlashtirishga asoslanadi. Ta'lim faoliyatini tashkil etish usuli orqali ta'lim mazmuniga erishiladi.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim o'qituvchi shaxsida namoyon bo'lishi zarur bo'lgan sifatlarni quyidagicha turkumlashtirish mumkin [3]:

1. kasbiy sifatlari;
2. tashkilotchilik sifatlari;
3. mulqotga kirishuvchanlik sifatlari;
4. o'quvchilar jamoasiga rahbarlik sifatlari;
5. boshqaruvchilik sifatlari;
6. ish yurita olish sifatlari;
7. ijodiy faoliyatni tashkil eta olish sifatlari;
8. voqelikni to'g'ri baholay olish sifatlari;
9. tadqiqotchilik sifatlari.

Zamonaviy o'qituvchi boshlang'ich ta'lim (pedagog) quyidagi ijodiy- amaliy (konstruktiv) malakalarni o'zlashtira olishi zarur:

- alohida-alohida ma'lumotlardan foydalangan holda yaxlit o'quv va tarbiyaviy xarakterdagi materialni shakllantirish;
- o'quv materialini turli rasm, surat, jadval, diagramma, model va boshqalar bilan boyitish;
- o'ziga xos, orginal o'quv materialini tayyorlash;
- mustaqil ravishda yangi metodni asoslash;
- o'quv mashg'uloti (dars) va tarbiya tadbir uchun ko'rsatmali
- qurollar to'plamini yaratish;

- dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik pasporti, xaritasini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirda foydalanish uchun multimediya materiallarini yaratish;
- o'quv materialining taqdimot variantini tayyorlash;
- turli mavzulardagi tarbiyaviy tadbirlar uchun o'quvchilarning faol ishtirokida video roliklar yaratish;
- dars konspektini tayyorlash;
- turli shakl va metodlarga asoslangan sinov topshiriqlari (savol, topshiriq, masala, misol, mashq, test), baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- nazorat ishlarini tashkil etishga ijodiy yondashish.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Shunday qilib ta'lim jarayoniga interfaol usullarni qo'llashda o'qituvchi ta'lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo'lib, bunda boshqaruv maqsadi ta'limning ob'ekti va sub'ekti sifatida o'quvchiga yo'naltiriladi. Demak, pedagogik texnologiya ta'lim mazmuni usul, shakl va vositalar asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayon kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltiriladi. Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o'tilgan zamonaviy umumta'lim maktablari ta'limi, xususan, boshlang'ich maktab ta'limi muammolarini hal qilish davrimizning dolzarb vazifasidir.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. K.Xoshimov. Pedagogika tarixi. Toshkent, 2015.
2. K.Xoshimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi. 2-qism. Toshkent, 2015.
3. B.Yu.Xodiev, O.M.Abdullaev, I.Inomov, T.Abdullaeva. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2017.
4. M.Ochilov, N.Ochilova —Oliy maktab pedgogikasi|| darslik T., 2018y.
5. B.Ziyomhammadov. Pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2016 y.